

# Tong yulduzi

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:24 (67189)  
2018-yil 11-iyun

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

**Sening quchog'ingda yayraymiz har payt,  
O'zing murabbiysan, ona tabiat!**



**«ONAJONIM  
TABIAT»  
INSHOLAR  
VA RASMLAR  
TANLOVI  
G'OLIBLARI  
TAQDIRLANDI**

**4-5**-betlar



## **O'ZBEKISTONDA ILK BOR o'quvchilar o'rtasida Mirzo Ulug'bek nomidagi xalqaro olimpiada o'tkaziladi**

2018-yil 19-23-iyun kunlari Samarqand shahrida ilk marotaba umumta'lim maktablarining 10-11-sinf o'quvchilari o'rtasida fizika va astronomiya fanlaridan Mirzo Ulug'bek nomidagi xalqaro olimpiada o'tkaziladi.

Yurtimizda ushbu nufuzli xalqaro bilimlar sinovini tashkil etish tashabbusi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shu yil mart oyida Samarqand shahriga qilgan tashrifi davomida mahalliy aholi faollari bilan uchrashuvda ilgari surilgan edi.

Mirzo Ulug'bek nomidagi xalqaro olimpiadani tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad buyuk ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan ulkan hissasini xalqaro miqyosda targ'ib etish, iqtidorli o'quvchilar uchun xorijiy mamlakatlardagi tengdosh-

lari bilan do'stona raqobat muhitini yaratishdan iborat.

Mustaqillik yillarida iqtidorli o'quvchilar 50 dan ortiq turli xalqaro olimpiadalarda ishtirok etib, 300 ga yaqin medaini qo'lga kiritgan bo'lsa-da, biroq shu kunga qadar O'zbekiston o'zining nufuzli xalqaro olimpiadasiga ega bo'lmagan. Samarqandda o'tkazilayotgan ushbu bellashuv tarixning yangi sahifasi bo'lib, mamlakatimizning dunyo hamjamiyatida nufuzi tobora ortib borayotganini ko'rsatadi.

Mirzo Ulug'bek nomidagi xalqaro olimpiadada dunyoning qator dav-

latlaridan iqtidorli o'quvchilar ishtirok etishi kutilmoqda. Unda har bir ishtirokchi davlatdan 6 nafar o'quvchi (3 nafari fizika, 3 nafari astronomiya fanidan) hamda ikki nafar jamoa rahbaridan iborat guruh ishtirok etishi belgilangan.

Bellashuvlar nazariy va eksperimental bosqichda o'tkazilib, materiallar o'zbek, rus va ingliz tillarida tayyorlanadi.

Hakamlar hay'ati fizika va astronomiya fanlaridan dunyoning tanikli xalqaro darajadagi ekspertlari, MDH davlatlarining professor-o'qituvchilari va yurtimizning tajribali olimlari, mahoratli amaliyotchi o'qituvchilaridan iborat.

Ishtirokchilarga yurtimizning turizm salohiyati namoyish etilib, Samarqand shahrining diqqatga sazovor joylariga



sayohatlar, madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etiladi.

Ushbu bilimlar sinovida g'oliblikni qo'lga kiritgan o'zbekistonlik o'quvchilar oliy ta'lim muassasalariga imtiyozli o'qishga kirish huquqini qo'lga kiritadi.

Mazkur xalqaro olimpiada keyinchalik ikki yilda bir marotaba umumta'lim muassasalarining 10-11-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladi.

**Xalq ta'limi vazirligi  
Matbuot xizmati**

## KITOBXON O'QUVCHI

**Sinf doshim Rustam kitob o'qishni juda yaxshi ko'radi. U hikoya, maqolalar yozib, gazeta va jurnallar ham o'z ijod namunalari yuboradi.**

Yaqinda u «Kitob – ma'naviyat beshigi» tanlovida qatnashib, faxrli o'rinni egalladi. Maktab ma'muriyati tomonidan Rustamga o'nga yaqin kitoblar sovg'a qilindi. U shaxsiy kutubxona tashkil qilmoqchi ekanini aytdi. Kelajakda unga ulkan zafarlar tilaymiz.

**Muxlisa RO'ZIYEVA,**  
Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi 12-umumta'lim maktabi o'quvchisi

## O'zbekiston yoshlar ittifoqi muassisligida Pasterdarg'om tuman YOSH IJODKORLAR KENGASHI tashkil etildi.

Unda nazm, nasr, jurnalistika, tarjimonlik, rassomlik yo'nalishlari bo'yicha iqtidorli o'g'il-qizlar bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazmoqda. Kengashga, shuningdek, Urgut, Bulung'ur, Tayloq hamda Nurobod tumanidan jami 200 dan ortiq ijodkor a'zo bo'lgan.

– Men Pasterdarg'om Yosh ijodkorlar Kengashining a'zosi ekanimdan xursandman. Bu maskanda o'zim kabi yosh ijodkorlar bilan hamsuhbat bo'lib, fikr almashamiz va eng

asosiysi, vaqtimiz bekor o'tmaydi, – deydi Siyob tibbiyot kolleji o'quvchisi Mahkamoy Abdushukurova.

Ushbu maskanda yana boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun «Umid g'unchalari» to'garagi tashkil etilib, u yerda she'riyat va adabiyotning sir-asrorlari o'rgatib kelinmoqda.

**Mohiniso BOBOQULOVA,**  
Samarqand viloyati, Pasterdarg'om tumanidagi Yosh ijodkorlar Kengashi raisi

## SINF DOSHLARIMGA OMAD

**Hash-pash deguncha o'quv yili ham tugab qoldi. 9-sinflar uchun hayajonli onlar boshlandi.**

Chunki imtihon topshirish vaqti yetgandi-da. Hamma sinf doshlar bir-birimizga omad tiladik. Birinchi imtihonimiz jismoniy tarbiya fanidan bo'ldi. Barchamiz sportni sevganimiz uchun savollarga javoblarimiz tayyor edi.

Yana oltita fandan imtihonlarni ham birin-ketin a'lo baholarga topshirib, o'yilagan maqsadimiz sari olg'a qadam tashlayapmiz. Sinf doshlarimizning ba'zilari yuqori sinfda qolmoqchi, ba'zilari esa kollejlarga hujjat topshirmoqchi. Bitiruvchilarga o'zlari istagan o'quv dargohiga kirib olishlarini tilayman.

**Sarviniso BOBOYEVA,**  
Toshkent viloyati, Bekobod tumanidagi 31-umumta'lim maktabi o'quvchisi



## Maktab menga quchoq ochdi

**Feruza Jo'rayeva – Yunusobod tumanidagi «Paxtaoy» nomli 554-maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchisi:**

– Qadrdon bog'chamiz bilan xayrlashdik. Maktabga borishimni o'ylar ekanman, yangi o'quv yili tezroq boshlanishini intiqlik bilan kutaman. U yerda bizni bog'cha opamiz Go'zal Sa'dullayeva kabi bir-biridan mehribon ustozlar kutmoqda.

**NIGORA**

## QALB KO'ZI

**Katta buvimning olamdan o'tganlariga o'n yil bo'ldi. Qishloqqa borganimizda, birinchi navbatda ularnikiga mehmonga borardik. Afsuski, katta buvimlarning ko'zlari ko'rmas edi.**

Hali-hamon esimda, ko'zlari ojiz bo'lsa-da, buvim taxta-kachda sabzi to'g'rab o'tirardilar. Bir yili men, dadam, oyim, opam qishloqqa bordik. O'shanda chamasini yetti-sakkiz yoshlarda edim. Bizni tog'am va ularning oila a'zolari iliq kutib oldi. Buvim o'shanda ham sabzini mayda qilib to'g'rab o'tirardilar. Bizning ovozimizni eshitib:

– Iye, toshkentliklar keldimi?! – deb bizga peshvoz chiqqandilar. Ular bilan uzoq suhbat qurgandik. Dadamlarning aytishicha, katta buvimlar to'qson beshdan oshganlarida, sut tishlari qaytadan chiqib boshlaganmish. Ular doim «Insonning ko'zlari so'qir bo'lsa bo'lsin-u, ammo QALB KO'ZI so'qir bo'lmasin», derdilar. Men ularni har eslaganimda, ko'z oldimga o'sha ayvon chetidagi uy, u yerda sabzi to'g'rayotgan katta buvim kelaveradi. Dono o'g'itlari esa qulog'im ostida jaranglayveradi.

**Gulchiroy SULTONBEKOVA,**  
poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi 48-umumta'lim maktabi o'quvchisi

## VAQTIMIZ CHO'G' O'TMOQDA

Kuni kecha ushbu maskanda ajoyib tadbir bo'lib o'tdi. Unda iqtidorli o'quvchilar o'zlari yasagan buyumlar bilan faol qatnashdi. Kechani jajji qizaloqlarning sho'x raqslari ochib berdi. Fursatdan foydalanib, tadbirda ishtirok etgan bolajonlar bilan suhbatlashdik:

– Bu yerga kelganimizga atigi besh oy bo'ldi. Ayni paytda ustozimiz Shomurod aka Salimovdan duradgorlik sir-asrorlarni puxta o'rganib boryapmiz. Bugungacha ustozim yordamida quticha, lavh, stulchalar yasab, rangli bo'yoqlarda naqshlar tushirishni o'rgandik, – deydi poytaxtimizdagi 287-umumta'lim maktabining 7-«B» sinf o'quvchilari Begzod To'liqinov va Ibrohim Bahodirov.

**Yozgi ta'til kunlarida bolalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda Respublika «Barkamol avlod» bolalar texnik ijodiyot markazi qoshida faoliyat yuritayotgan to'garaklarning o'rni beqiyos.**


– Yaqinda Qirg'izistonda bo'lib o'tgan tanlovda robototexnika yo'nalishi bo'yicha ishtirok etib, faxrli o'ringa sazovor bo'ldim. Yasagan robotim asosan, geologiya ishlarida yordam berishga mo'ljallangan. Agar bu qurilmaning ustiga katta tosh tushib ketsa ham harakatdan to'xtamay, yo'lini davom ettiradi, – deydi poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 42-umumta'lim maktabi o'quvchisi Muhammadkamron Qobilov.

Tadbir so'nggida to'garak a'zolari faxriy yoriqlar bilan taqdirlandi.

**Nigora ABDUNAZAROVA**



# UNUTILMAS SAYOHAT



**Yaqinda Ishtixon tumanidagi 13-umumta'lim maktabining 1-sinf o'quvchilari Miyonkol oroli muzeyiga sayohatga borishdi.**

U Samarqand viloyati, Ishtixon tumanining Miyonkol orolig'ida joylashganligi uchun shu nom bilan ataladi. O'quvchilar muzeyda hayvonot olami: qarg'a, suv o'rdagi, nayzatumshuq, kapalaklarning 20 turi, yirtqich qushlar, tog' echkisi, yovvoyi to'ng'iz va ayiqlar bilan tanishdilar.

Muzeyning ikkinchi yo'lagida XII-XIV asrdagi sopol idishlar, tegirmon va tarozi toshlari, mum saqlanadigan sopol idish, meva soladigan savatlar, shamdonlar, hunarmandlar tomonidan yasalgan idishlar, o'sha davr pichoqlari va samovarlari, momolarimiz tomonidan tikilgan va to'qilgan gilamlar, ko'rpalar, kashta va so'zanalar o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otdi.

Muzeyning asosiy zalidan o'r in olgan Registon maydonining Ulug'bek, Sherdor, Tillakori, Bibixonim madrasalari maketlari ham bolajonlarda katta taassurot qoldirdi.

**Mavluda AMIROVA,**

**Samarqand viloyati, Ishtixon tumanidagi 13-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi**

\*\*\*

**Dam olish kunlari ustozlarimiz boshchiligida sinfdoshlarim bilan Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi so'lim va maftunkor Kumushkon qishlog'iga sayohatga bordik.**

Ulkan va purviqor tog'lar qarshisida turarkanmiz, ularning salobatidan hayratga tushdik. Hazrati Ali ziyoratgohiga borib, Qur'on tilovat qildik. Zamonlarning zalvoriga guvoh bo'lgan, tarixi asrlarga tutash chinorlar va uning osmonlarga bo'ylagan shoxlariga boqib, o'zgacha bir salobatni his etdik. Yam-yashil maysalar, iforli gullar kishi kayfiyatini yanada ko'taradi. Ayniqsa, tog'ning baland cho'qqisiga chiqish barchamizga zavq bag'ishladi.

Bir so'z bilan aytganda, tabiat qo'yniga sayohatimiz taassurotlarga boy bo'ldi.

**E'zoza USMONXO'JAYEVA,**

**poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 34-umumta'lim maktabi o'quvchisi**

## YUTUQLARIM HAQIDA

**Assalomu alaykum, «Tong yulduzi» gazetasi tahririyati xodimlari! Gazetada tengdoshlarimning erishgan yutuqlari to'g'risidagi maqolalarni o'qib, o'zim haqida yozgim keldi.**

Maktabda yoshlar ittifoqi sardoriman. Bo'sh vaqtimda she'r, hikoyalar yozib turaman. Adabiyot va ona tili fanlariga qiziqishim tufayli, yaqinda o'tkazilgan «Bilimlar bellashuvi»da ishtirok etib, tuman bosqichida 1-o'ringa loyiq deb topildim. Shuningdek, tumanimizdagi maktablar o'rtasida o'tkazilgan «Men sevgan adabiy qahramon» mavzusidagi insholar tanlovida ham g'olib bo'ldim. Ushbu yutuqlarim uchun, avvalambor, ustozim Feruza opa Sobirovaga katta tashakkur aytaman.

**Shahzoda YAKUPOVA,**

**Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xo'jayli tumanidagi 1-umumta'lim maktab o'quvchisi**

The best way to find yourself is to lose yourself in the service of others.

## Lesson 24

# WOW, SUMMER IS HERE!

Let's children, we count why do we like summer. Think twice and continue the columns and make up the sentences.



Painter: Yoqubbek HALIMBEKOV

## Continue the text


My favorite things to do in summer are to swim and relax, visit to friends and relatives. I spend whole days in the swimming pool with my friends. During our free time we read books. And at the weekend with my family we go outside...

Ma'mura G'ULOMOVA, Gulchehra SHOMALIKOVA

## HAPPY STAIRCASES



- o'g'il
- oy
- peshin
- etak
- piyoz
- zahar
- pilla
- fikr
- pufak
- takror
- savol
- e'lon
- hamroh
- kasb
- avlod



Dilrabo MAVLONOVA, the pupil of school №45 Zaamin district Jizzakh region

## INTERESTING RIDDLES

A place where you play and splash.

You may look up it during the day  
Then you will see this lit,  
It is Earth's closest star  
Around which our galaxy.

It is made of milk,  
You keep it in the fridge.  
It is cold and you like it in the summer.



Dinora ABDULLAJONOVA

Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidir.  
O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 55-modda.

## «ONAJONIM TABIAT» INSHOLAR VA RASMLAR TANLOVI G'OLIBLARI TAQDIRLANDI

Aziz gazetxon o'quvchilar! Xabaringiz bor, «Tong yulduzi» gazetasining 2018-yil 2-aprel sonida O'zbekiston Ekologik harakati, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda «Tong yulduzi» gazetasi bilan hamkorlikda an'anaviy «Onajonim tabiat» insholar va rasmlar tanlovini e'lon qilgan edik.

Tanlovning ahamiyatli jihati shundaki, unda ishtirok etayotgan o'quvchilar soni yildan yilga ortib bormoqda. Chunki siz ona tabiatga, atrof-muhitga bee'tibor emassiz. Bu esa sizning yutug'ingizdir.

Navbatdagi tanlov doirasida ham sizdan ko'plab maktublari oldik. Har bir ijodiy ishingizda tabiatni sevishingizni, uning har bir g'iyohi, o't-o'lani-yu zilol suvlari siz uchun azizligini va ulami asrab-avaylash burchingiz ekanligini ta'kidlagansiz.

Biz tahririyat xodimlari g'olib o'quvchilarni tabriklagan holda g'olib bo'lolmagan ishtirokchilarimizga «Aslo bo'sh kelmang», degimiz keladi. Yanada ko'proq izlanib, navbatdagi tanlovlarimizda ham faol bo'lishingizga va albatta, g'oliblar safidan joy olishingizga ishonamiz.

Yaqinda poytaxtimizning G'afur G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida «Onajonim tabiat» insholar va rasmlar tanlovi g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.



## Sening quchog'ingda O'zing murabbiysan,

### OPAM QO'LLAB- QUVVATLAYDI

Zakiya QOSIMJONOVA, Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 23-Bolalar musiqa va san'at maktabining 2-sinf o'quvchisi:

– Yoshim 10 da. Rasm chizishga juda qiziqaman. Ustozim Rustam aka Xudoyberganov menga tasviriy san'atning sir-asrorlarini o'rgatib kelmoqda. Bizning oila katta. Buvijonim, dadam, onajonim, opam, ukam va singlim meni hamisha qo'llab-quvvatlaydi. Katta opam Aziza Qosimova ham tasviriy san'atga mehr qo'ygan. Biz birgalikda san'at maktabida tahsil olamiz. Bir-birimizdan o'rganamiz, ko'maklashamiz.

Mening «Orolni asrang» mavzusidagi ijodiy ishimi yuqori baholagan hay'at a'zolaridan minnatdorman. Kelgusida o'z ustimda yanada ko'proq izlanaman.

### OBOD QISHLOG'IM MANZARALARI

Davronbek NORBOYEV, Jizzax viloyati ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internatining 8-«A» sinf o'quvchisi:

– Tasviriy san'atga qiziqishim meni san'at maktab-internati tomon yetakladi. O'tgan davr mobaynida ko'plab respublika hamda xalqaro tanlovlarda ishtirok etdim. Jumladan, Misrda bo'lib o'tgan xalqaro rasmlar tanlovida qatnashib, faxrii o'rinni egalladim. Bu ishtirokim meni yanada ko'proq o'qib-o'rganishga undaydi. Bu yil maktab-internatning 8-sinfini a'lo baholar bilan tamomladim. Yozgi ta'til davomida ko'proq kitob o'qib, obod qishlog'im manzaralarini chizgilarimda tasvirlayman.

### TAHRIRIYATDA MEHMON BO'LDIM

– «Onajonim tabiat» tanlovida insho yo'nalishi bo'yicha g'olib bo'lganimdan nihoyatda mamnunman, – deydi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Kegeyli tumanidagi 11-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi Sahibjamal Karamatdinova. – Toshkentga kelganimdan esa ikki hissa xursandman. Bosh kentimizda qad rostlayotgan go'zal binolar-u muhtasham ko'priklarni ko'rib, yanada hayratlandim. Toshkent metrosiga tushib, uni televizorda ko'rsatganday nihoyatda chiroyli va ozoda ekanligiga guvoh bo'ldim. G'afur G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida arg'imchoqlarda uchdim. «Nishonga olish» o'yinida yumshoq o'yinchoq ham yutib oldim. Eng quvonarlisi, ustozim bilan «Tong yulduzi» tahririyatiga keldim. Ijodkor opa va akalaringimning ish jarayonini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Samimiy muloqotlardan nihoyatda quvondik.



G'olib bo'lish qanday yaxshi!



Sahibjamal: – Go'zal poytaxtimizga «Jetkinshek» gazetasi Bosh muharriri Abdulla Yembergenov, Qoraqalpog'iston televideniyesi telejurnalistlari – «Oltin qalam» milliy mukofot sovrindori Anjim Bekbergenova hamda Lazzet Yesemuratova, ustozim Minayim Doshimova bilan birga keldim.

## MENING LOYIHAM

**Nafisa TOSHPOLATOVA, Toshkent viloyati, Chinoz tumanidagi 17-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi:**

– Ustozim Ixtiyor Abdunazarovdan rasm chizishning sir-asrorlarini puxta o'rganib kelmoqdaman. «Bebaho ne'mat» nomli ijodiy ishim bilan «Ona-jonim tabiat» tanlovida g'olib bo'ldim. Shuningdek, she'r va hikoyalari bolalar nashrlarida tez-tez chop etiladi.

Innovatsion g'oyalari bo'yicha viloyatda o'tkazilgan tanlovda «Suv jo'mragining zamonaviy ko'rinishi» loyiham bilan qatnashib, «Eng oliy kompozitsiya» nominatsiyasida 1-o'rinni qo'lga kiritdim. Loyihamda jo'mrakdan tushayotgan suvning oqish tezligini turli o'lchamlarga keltirish mumkinligini taklif etdim. Bu loyiham tanlov hay'ati a'zolari va ishtirokchilarni qiziqtirib qoldi.

Bog'imizda turli mevali daraxtlar bor. Ularni dadam, onam, ukam Mavlon, singlim Madina bilan birga parvarishlaymiz. Shuningdek, hovli va bog'imizga turli gullar ekib, landschaft dizayni hosil qilish jon-u dilim. Sinfdoshlarim, qo'ni-qo'shnilar turfa gullar uyg'unligini ko'rib, zavq olishadi, tabiat in'om etgan go'zalliklardan bahramand bo'lishadi. Ular ham bizning hovlimizni gullar bilan bezab, landschaft tashkil qilib ber, deya iltimos qilishadi. Chinoz tumanidagi 32-maktabgacha ta'lim muassasasi hovlisidagi gullar landschafti dizaynini yaratishda o'z g'oyalari bilan amaliy yordam beraman.

Kelajakda yanada ko'proq yutuqlarga erishsam, deymen.

## TA'TILDAGI ILK SAYOHAT

**Zebo JO'RAQULOVA, Jizzax viloyati, Jizzax shahridagi 12-umumta'lim maktabining 3-«B» sinf o'quvchisi:**

– Orzularim juda ko'p. Ularga erishish uchun yaxshi o'qish kerakligini bilaman. Joriy o'quv yilini a'lo baholarga yakunladim. Endi ta'tilda «Barkamol avlod» bolalar ijodiyot markazi qoshidagi ingliz tili to'garagiga qatnayman. Bundan tashqari, mazza qilib kitob o'qiyman.

Ona shahrim tabiati haqida yozgan inshom 2-o'ringa loyiq topilganidan juda xursand bo'ldim. Buvijonim yozganlarimning puxta va mazmunli chiqishida o'qigan kitoblarimning o'mi katta ekanini aytdi. Shunday ekan, ta'til kunlarida barcha tengdoshlarimni kitob o'qishga chorlayman. Ta'til avvalidagi ilk sayohatim esa Toshkentga bo'lganidan juda xursandman.

## RASMLAR BO'YICHA G'OLIB BO'LGAN O'QUVCHILAR RO'YXATI:

1-o'rin – **Shahina SUVONOVA, Toshkent shahar, Olmazor tumanidagi 25-Bolalar musiqa va san'at maktabining 5-sinf o'quvchisi;**

2-o'rin – **Laylo BEGIYEVA, Sirdaryo viloyati, Yangiyer shahridagi 10-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi;**

3-o'rin – **Zakiya QOSIMJONOVA, Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 23-Bolalar musiqa va san'at maktabining 2-sinf o'quvchisi;**

4-o'rin – **Davronbek NORBOYEV, Jizzax viloyati ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internatining 8-«A» sinf o'quvchisi;**

5-o'rin – **Nafisa TOSHPOLATOVA, Toshkent viloyati, Chinoz tumanidagi 17-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi.**

## INSHOLAR BO'YICHA G'OLIBLAR:

1-o'rin – **Dilshodbek KARIMOV, Buxoro viloyati, Buxoro shahridagi 17-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi;**

2-o'rin – **Zebo JO'RAQULOVA, Jizzax shahridagi 12-umumta'lim maktabining 3-«B» sinf o'quvchisi;**

3-o'rin – **Madina TURSUNBOYEVA, Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 59-DIUMning 3-«F» sinf o'quvchisi;**

4-o'rin – **Sahibjamal KARAMATDINOVA, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Kegeyli tumanidagi 11-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi;**

5-o'rin – **Dilmura SAILXONOVA, Xorazm viloyati, Hazorasp tumanidagi 10-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi.**

# yayraymiz har payt, ona tabiat!



## «YOSH BIOLOGLAR» A'ZOSIMAN

**Dilshodbek KARIMOV, Buxoro shahridagi 17-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi:**

– Sportning futbol, shashka, stol tennisi turlariga qiziqishim baland. Bu mashg'ulotlar irodamni mustahkamlashga, tez va maqbul qaror chiqarishga o'rgatadi. Tanlovning insho yo'nalishi bo'yicha 1-o'ringa sazovor bo'lganimni eshitib, boshim ko'kka yetdi. O'zim maktabdagi «Yosh biologlar» to'garagi a'zosiman. Inshoni yozishimda mashg'ulotlarda o'zlashtirgan manbalardan foydalandim. Ta'til kunlarida ham bo'sh o'tirmay, badiiy kitoblari, ayniqsa, sevimli «Tong yulduzi» gazetasi mutolaa qilaman.

## TANLOVLARDA FAOLMAN

**Laylo BEGIYEVA, Sirdaryo viloyati, Yangiyer shahridagi 10-umumta'lim maktabi o'quvchisi:**

– Men ingliz va rus tillariga qiziqaman. O'tgan yili ingliz tilidan o'tkazilgan «Bilimlar bellashuvi»ning shahar bosqichida 2-o'rinni egalladim. Maktab yoshlar ittifoqining «Salomatlik va ekologiya» yo'nalishi a'zosiman. Chizgan rasmim barchaga manzur bo'lgani menga yanadan ilhom bag'ishladi. Kelgusida ko'proq izlanib, bundan-da chiroyli va dolzarb mavzularda rasmlar chizmoqchiman.

## KUTILMAGAN G'OLIBLIK

**Dilmura SAILXONOVA, Xorazm viloyati, Hazorasp tumanidagi 10-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi:**

– Yozgan ishomni yaxshi niyat va katta maqsadlar bilan tanlovga yo'llagan edim. Meni poytaxtdagi taqdirlash marosimiga taklif qilishganida butun oilamiz bilan quvonib ketdik. Shunda buvajonim «Maqsad sari intilib yashashning natijasi va baxti ana shunday yoqimli bo'ladi», – dedi. G'oliblik mas'uliyati esa meni bundan keyin ham tengdoshlarimni atrof-muhitni muhofaza qilishga chorlamoqqa undaydi.



## BUGUN EKKAN QALAMCHANG, K-A-AT-TA TERAK BO'LADI

**Bugun ekkan qalamchang, Ka-a-at-ta terak bo'ladi. Faqat uni avaylab, Asrash kerak bo'ladi.**

Bu she'rni Madina «Ona-jonim tabiat» rasmlari va insholar tanlovining g'oliblarini taqdirlash marosimida ifodalaytib berdi. Tadbirda hozir bo'lgan tashkilotchilarni ko'rib,

**Tog' go'zal, o'tloq go'zal, Sevamiz gul atrini. Esda tutaylik, do'stlar, Tabiatning qadrini!**

biroz hayajonlandi ham. Ammo atrofda gullarning qo'llab-quvvatlashi unga dalda bo'ldi. Tanlovning insholar bo'yicha 3-o'rinni qo'lga kiritgan Madina Tursunboyeva bu yil Toshkent

shahrining Shayxontohur tumanidagi 59-DIUMning 3-sinfini tamomladi.

– Yozgan inshom 3-o'ringa loyiq topilganidan juda xursandman. Ustozimiz doimo bizga tabiatni asrash, havoni musaffo, suvlarni pokiza saqlash o'z qo'limizda ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning so'zlaridan o'zimizga tegishli xulosa chiqaramiz. Bugun tabiatning yosh posbonlari ekanligimizga yana bir marta ishonch hosil qildim.



– Bu mening birinchi yutug'im, – deydi Madina.


Ilmni mehnatsiz  
egallab bo'lmaz.

Tong  
yulduzi

BIZGA MAKTUB YO'LLABSIZ

# SHE'RIYATGA SHAYDO YURAKLAR

Xatlar bo'limidan har kuni bir dasta «she'r» olaman. O'quvchilarning she'riy dilmolarini qo'lga olib birma-bir ko'z yugurtirarkanman, beixtiyor xayolimdan yurtimizning chekka qishloqlarida o'ziga-o'zi she'r aytib yurgan o'g'il-qizlarimiz jonlanadi. Tabiat quchog'ida kezib, uning go'zalligiga mahliyo bo'lgan g'ururi baland ijodkorlarning beg'ubor satrlari qalbimizni ilitadi. Goho shoshqaloqlik bilan yo'llagan maktublar ham ko'zga tashlanadi. She'r oddiy so'z emas, u insonga Olloh tomonidan berilgan ilohiy ne'matdir. Uning zavqi bilan yashash har kinga ham nasib etmaydigan baxt, ammo u baxtga erishish uchun insondan juda katta mehnat talab qilinadi.



Kurram RAYIMOV,  
bolalar shoiri

## VATANNI BOSHDA KO'TAR

Ey bolajon, bolajon,  
Tog'lardagi lolajon.  
Yurtimizga boqsang gar,  
Diida toshar hayajon.

Har sohada burilish,  
Har qadamda qurilish.  
Yangilanish, poklanish,  
Oldingi safda yurish.

Kerak endi porlamoq,  
Kerak endi chorlamoq.  
Chin insoniy burchingni,  
Lozim to'la oqlamoq.

Bir joyda qolib ketish,  
Tepsinish, nolib o'tish.  
Kechirib bo'lmaz gunoh,  
Ertani yonmay kutish.

Ko'p joylarda g'avgo bor,  
Ko'p joylarda dolg'a bor.  
Bizda kitobxon uchun,  
Eng kattakon sovg'a bor.

Daryoday oqib o'qing,  
Qalblarni yoqib o'qing.  
Zehnni charxlab turib,  
Mag'zini chaqib o'qing.

O'qigan o'tar endi,  
Bilimdon yutar endi.  
Zakovat bilan yurtini,  
Boshingga ko'tar endi.

## INNOVATSIYA VA HAYOT

Ilm-u fan, targ'ibotga,  
San'at, adabiyotga.  
Berilgandir e'tibor,  
Ulkan taraqqiyotga.

Qog'ozda qolib ketmas,  
Og'izda yelib bitmas.  
Zarracha ozor yetmas,  
Ko'chib amaliyotga.

Barcha bo'lib kitobxon,  
Hamma bo'lib savodxon.  
Ochilar sirlar oson,  
Yuksalish har soatda.

Qayda zang o'chib borar,  
G'uborlar ko'chib borar.  
Ravon yo'l ochib borar,  
Innovatsiya hayotga!

Aziz o'quvchi! Sizning sinchkov nigohingiz, yurakdan quyilib kelayotgan satrlaringiz kishini mahliyo etishi uchun kitobga ko'nglingizni mustahkam bog'lashni zinhor unutmang! Negaki, kitoblarda umrini she'riyatga bag'ishlagan bobolaringizning sehirli pand-u nasihatlari jamlangan. Goho qofiyaning ortidan quvlab, she'rning mazmun-mohiyatidan yiroqlashasiz. Gohida bayon-namo yengil-yelpi so'zlarning yig'indisini yig'ishdan charchaysiz. Bilaman she'r yozish qanchalar mashaqqat ekanligini. «She'rinni «Tong yulduzi» gazetasiga yuborgandim, chiqmayapti...», deya noliysiz. Qaniydi, sizning yozganlaringiz bizni mahliyo etsa-yu, biz uni shosha-pisha sahifaga qo'ysak.

Ijodkor odam ohori to'kilmagan so'zlar, go'zal tashbehlarni topib qo'llasa, gazetxon hayratlanadi. Ko'nglidan zilol bu- loq suvideki she'r sizayotgan o'quvchi tinimsiz izlanib, bir kun o'z orzusiga erishadi. Adabiyot dargohiga qo'yg'an ilk qadamingiz nuraflon bo'lsin, deya siz yo'llagan maktublarga yuzlanamiz:

**Farg'ona viloyati, Qo'shtepa tumanidagi 30-umumta'lim maktabi o'quvchisi Muazzamxon Muxtorova «Kitobim» nomli she'rida:**

Izlab, izlab topganim,  
Mening jondan sevganim.  
Yuragimda borimsan,  
O'zing mening kitobim..., deya yo- zadi. Xuddi shu maktabning yana bir o'quvchisi **Lutfiniso Sodiqova** «Yax- shilik tilab» nomli she'rida:

Borliqni gullatib, to'ldirib nurga,  
Yaxshilikni asrab kelaylik birga..., deya o'quvchini ezgulikka undaydi.

**Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumanidagi 38-umumta'lim maktabi o'quvchisi Rushana Rahmatullayeva «O'zbekiston» she'rida:**

Asrayman onamdek qo'riqlab seni,  
Asrayman otamdek ulug'lab seni.  
O'zing panohingga olgaysan meni,  
Onam kabi aziz, O'zbekistonim...

**G'ijduvon tumanidagi 43-umum- ta'lim maktabi o'quvchisi Ilhom Ubaydovning «Ona desam» nomli she'rida onaga nisbatan go'zal qiyos berilgan:**

Bahor bo'lar, yoz bo'lar dunyo,  
Sho'x bir qo'shiq, soz bo'lar dunyo.  
Qog'oz-qalam bulbuligo'yo,  
Ona desam, onajon desam...

**Zomin tumanidagi 34-umumta'lim maktabi o'quvchisi Madina Sher- qo'ziyeva «Vatan» she'rida:**

Tuprogi gulga to'lsin,  
Bog'lari nurga to'lsin.  
Bayrog'i baland bo'lsin,  
Yurtim O'zbekistonning...

Xuddi shunday nurli satrlarni bizga Chi- noz tumanidan Na- fisa Toshpo'latova, Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 40-umum- ta'lim maktabi



Gavhar  
SULLIYEVA



O'rozali  
HOTAMOV



Madina  
SHERQO'ZIYEVA



Mohinur  
ASQAROVA

o'quvchisi Humoyunmirzo Qo'shmoqboyev, Qoraqalpog'is- ton Respublikasi, To'rtko'l tumanida- gi 19-umumta'lim maktabi o'quvchisi Farida Ochilova, Surxondaryo viloyati, Angor tumanidagi 30-umumta'lim maktabi o'quvchisi Madina Xushbaqova, Qash- qadaryo viloyati, Chiroqchi tumanidagi 33-umumta'lim maktabidan Ibrohim Nodirov, Jizzax viloyati, Baxmatchoyi qishlog'idan O'rozali Hotamov, Andijon viloyati, Ulug'nor tumanidagi 19-davlat ixtisoslashtirilgan maktab-interna- ti o'quvchisi Xursanoy Inomjonova, Sirdaryo viloyati, Guliston shahar 6-umumta'lim maktabidan Navro'za Tursunova, Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanidagi 12-umumta'lim maktabi o'quvchisi Azizabonu Haydarovalar yuborishgan. Yuqorida nomlari zikr etilgan ijodkorlar she'rlarida ancha o'zgarishlar borligini kuzatdik. Ammo bu degani hali yaxshi she'r yozildi, degani emas. Siz maqtovimizdan g'ururlanib qolmasdan yanada ko'proq izlanishingiz kerak, deb o'ylayman. Yana bir guruh shoshqaloq ijodkor o'quvchilarning ham borki, ular she'rning qonun-qoi- dalariga rioya qilmasdan oddiy bayon so'zlarni she'r deb o'ylaydilar. Keling, so'zimiz quruq gap bo'lib qolmasligi uchun o'shanday she'rlardan ham

misol keltiraylik:

«Ota-ona» nomli she'rdan:  
Ota-onalar bor bo'lsinlar,  
Farzandlar uchun sog'-omon  
yursinlar...

«Betakrorimsan» nomli she'rdan:  
Bugun bayram, ertasi ko'ngil to'qdir,  
Xalqi butun totuvlikda armon yo'qdir.  
Farzandlari hamisha hur  
qalbida cho'g'dir,

Yagonamsan, betakrorim O'zbekiston...

Ushbu «she'r» mualliflarining ko'ngliga qarab ismi-sharifini yozmay qo'yaqoldik. Hali bolalikning quvnoq olamidan chiqmagan ijodkorning o'ziga yarashmagan beo'xshov bayon, pand-u nasihatlari-



Abdusamad  
XOLTO'RAYEV

dan o'quvchining ensasi qotadi. Nima bo'lganda, mingbora aytilgan bu qaytariq so'zlar hech qachon she'r bo'lmaydi. Xuddi shunga o'xshash satrlarni qashqa- daryolik Sohibjon Xolboyev, Xurshida

G'oyibova, Gavhar Sulliyeva, Diyor Quدراتov, Ibrohim Nodirov, Ozo- da Vassiyeva, Nasiba Majidova, samarqandlik Ma'ruf Boymatov, Dilbar Abdullayeva, Gavhar Hami- dullayeva, Shahrizoda Obloqulova, Ra'no Qarshiboyeva, Shahzoda Umrqulova, jizzaxlik Abdusamad

Xonto'rayev, Mohinur Asqarova, Toshkent viloyatidan Roza Bo'ribo'yeva, Yulduz Toshpo'latova, E'zoza Ko'charova, Otobek Ortiqov, Aydana Karimova, Gavharoy Sunnatillayeva, qoraqalpog'is- tonlik Mavluda Nasraddinova, Maftuna Nasraddinova, Shahzoda Karimboyeva, surxondaryolik Dildora Shaydullayeva, Rohila Abduqodirova, Dildora Matiyeva, farg'onalik Muhtaramxon Hasanova, Dildoraxon Abduxoliqova, andijonlik Nuriyaxonim Ulug'bek qizi, Mavludax- on Muydinova, Behzodbek Anvarov, navoiylik Farangiz Saydullayevalar o'z maktublarida yo'llagan. Xulosa qilib aytmoqchimizki, so'z sehidan ko'ngillarga mangu buzilmas qo'rg'on qurmoqchi bo'lgan ijodkor satrlari pishiq bo'lishi uchun tinimsiz izlanishdan hech qachon tolmasligi kerak. Bu yo'lda biz sizga omad yor bo'lishini tilab, ulug' ustoz shoirimiz Abdulla Oripovning «Takror aytilganda, rangsizdir kalam» satrini yana bir bor eslatgimiz keldi.

**AXTAMQULI,  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi  
a'zosi, «Tong yulduzi» gazetasi bo'lim  
muharriri**

## BALLI, QIZLARJON!

**Marg'ilon shahridagi 2-DIUMda axborot-resurs markazi xodimlari tashabbusi va O'zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti hamkorligida «Balli, qizlarjon!» nomli ko'rik-tanlov bo'lib o'tdi.**

Tadbirda maktabda bir necha yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan «Qizlarjon» klubi a'zolari faol qatnashdi. Davrani maktab rahbari, xalq deputatlari shahar Kengashi deputati Karimaxon Ro'ziboyeva ochib berdi. Shundan so'ng, qizlar «Tanishtiruv», «Bilimlar bellashuvi», «Pazandalik» kabi shartlar bo'yicha bellashib, o'z mahoratlarini namoyish etdi.

Tanlov yakuniga ko'ra, Muslima Murodilova «Eng namunali qiz», Shahzoda Dadaboyeva «Eng a'lochi qiz», Yulduz Mirabdullayeva «Eng zukko qiz» hamda Sayyora Zokirjonova «Eng bilimdon qiz» nominatsiyalari bo'yicha g'olib deb topilib, ular faxriy yoriq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Muhammadjon MAHMUDOV



**Qo'qon shahar xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi bir nechta umumta'lim maktablarida joriy yoz mavsumida bolalarni dam oldirish va sog'lomlashtirish maqsadida 1 600 nafar o'quvchi uchun kunduzgi oromgoh tashkil etilmoqda.**

**Sport ishonch, e'tiqod, tetiklik madaniyatini shakllantiradi.**

topib, oromgohlar faoliyati bilan yaqindan tanishaman. O'quvchilarimiz bilan suhbatlashaman, mavjud muammolarni mas'ul xodimlar bilan o'rganib chiqaman. Chunki maroqli dam yangi o'quv yilida

## «MO'JIZALAR MAKONI»DA MAROQLI DAM

«Mo'jizalar makoni» deb nomlangan ana shunday kunduzgi sog'lomlashtirish oromgohi 10-umumta'lim maktabida o'z faoliyatini boshladi. Ushbu maskan ikki navbatda xizmat ko'rsatib, hozirda 100 nafar dam oluvchi jalb qilingan. Maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Yu. Mullajonova rahbarlik qilayotgan oromgohda 1-«Palaponlar», 2-«Qaldirg'ochlar», 3-«Kabutarlar» va 4-«Lochinlar» guruhi a'zolari chet tili, musiqa, kompyuter savodxonligi va sport to'garagida bo'sh vaqtlarini un-

umli o'tkazmoqda. Oromgoh kutubxonasi badiiy adabiyotlar, xususan, qiziqarli va yangi nashrdan chiqqan ertak kitoblari bilan jihozlanib, sport maydonchalarida xalq o'yinlari hamda futbol, voleybol musobaqalari tashkil etilmoqda.

– Shahar o'quvchilarining ko'pchiligida tog'li hududlarda joylashgan oromgohlarda dam olish imkoniyati bo'lavermaydi. Shuning uchun kunduzgi oromgohlarni qiziqarli va esda qolarli tashkil etish masalasini o'quv yili davomida puxta rejalashtirib bordik, – deydi shahar xalq ta'limi bo'limi mudiri Ravshan Rasulov, – deyarli har kuni imkon



ta'lim samaradorligi kafolatidir. Yaqinda tarbiyalanuvchilar o'rtasida futbol bo'yicha oromgoh birinchiligi o'tkazildi. Qiziqarli kechgan bahslarda «Lochinlar» jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Nurbek QIDIRALIEV



## O'ZBEK HAKAMI – MUTLAQ REKORDCHI

**Yana sanoqli kunlardan so'ng Rossiyada futbol bo'yicha jahon chempionati bahslari start olishidan yaxshi xabardorsiz.**

Quvonarlisi, bu galgi mundialda Osiyoning 5 karra eng yaxshi hakami, dunyoning eng yaxshi referisiga beriladigan «Global Soccer Awards» sovrini g'olibi Ravshan Ermatov ham o'z jamoasi bilan birga muhim o'yinlarni boshqarib boradi.

Kuni kecha Xalqaro futbol tashkiloti – FIFAning rasmiy saytida boshlanajak jahon chempionatiga bag'ishlangan katta maqola chop etilib, muallif o'zbek hakami haqida ham alohida to'xtalib o'tgan. Jumladan, xabarda Ravshan Ermatovni 2010-yil JARda bo'lib o'tgan mundial bahslarida 5 ta, Barzilyadagi musobaqada esa to'rtta o'yinni boshqarib, dunyo futbol tarixida mutlaq rekordchiga aylangani qayd etilgan. Quvonarlisi, hakamimiz Rossiyadagi jahon chempionatida o'z natijasini yanada yaxshilash imkoniga ega. Biz esa unga bildirilgan yuksak ishonchni munosib oqlashiga tilakdoshmiz.



S. TURSINOV

**Gazetamizning o'tgan sonlarida futbol bo'yicha Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari o'rtasida bo'lib o'tgan jahon chempionatida g'oliblikni qo'lga kiritgan yosh charmtop ustalarimizning olamshumul g'alabasiga bag'ishlab maqola chop etgan edik.**

## CHEMPIONLAR YANA MAYDONDA

Kuni kecha «Jar» stadionida yosh chempionlar va Toshkentning «Paxtakor» jamoasi a'zolari o'rtasida o'rtoqlik uchrashuvi tashkil etildi. Maqsad – farzandlarimiz o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ular qalbida sportga mehr uyg'otishdan iborat.

Paxtakorchilar safida klub prezidenti Bobur Shodiyev, bosh murabbiy Shota Arveladze, murabbiy Jasur Abduraimov va sport direktori Ja'far Irismetov, shuningdek,

jamoaning asosiy tarkib futbolchilari – Ismoil Gonsalvesh, Marko Simich kabi mohir futbolchilar to'p surdi. Do'stona ruhda o'tgan bahs 12:9 hisobida toshkentliklar g'alabasi bilan yakunlandi.

– Ushbu uchrashuv orqali jahon chempionlarining yuksak iqtidor sohiblari ekaniga amin bo'ldim. O'ylaymanki, ular kelajakda milliy terma jamoa safida ham katta yutuqlarni qo'lga kiritadi, – deydi «Paxtakor» jamoasi Ismoil Gonsalvesh.

Bir kuni moychechak va chuchmoma o'zaro janjallashib qolibdi.

Moychechak: – Men hammadan chiroyliman va shifobaxshman, – debdi. Chuchmoma esa: – Yo'q, men hammadan go'zalman, – debdi.

Buni kuzatib turgan Quyoshbobo: – Shoshmang, urishmanglar! Ikkovingiz ham chiroyli, go'zalsizlar, – debdi.

Shu payt momaqaldiroq boshlanib, sharros yomg'ir quyib yuboribdi. Ikkala maqtanchoq,



## DO'STLIK

urishqoq gullar bir-birlariga suyanib, arang jon saqlabдилar. Yomg'ir to'xtab, yana Quyoshbobo charaqlab chiqibdi. Chuchmoma va moychechak boshlarini ko'tarib quyoshsiz, mehsiz hech qachon chiroyli, shifobaxsh bo'la olmasliklarini, bir-birlarining yordamisiz ikkalasi ham nobud bo'lishlari mumkinligini tushunib yetibdi.

Quyoshbobo esa ularni

ko'rib, miyig'ida kulib qo'yibdi va: – Doim ikki o'rtoq ahil-inoq, bir-birinizga suyanchiq bo'ling. Shunda to'fon-u shamollarga dosh berasiz, – debdi. Gullar esa iliq nurlardan bahra olib, yanada yashnab ketibdi.

**Laziza HAYDAROVA,**  
Navoiy viloyati,  
Qiziltepa tumanidagi  
12-umumta'lim maktabi  
o'quvchisi



## ENG, ENG, ENG...

**Amudaryo – O'rta Osiyodagi eng yirik va Sersuv daryo hisoblanib, uzunligi 2540 kilometr. Delta hosil qiladigan bu daryoning transport ahamiyati ham boshqa daryolarga qaraganda kattaroqdir.**

**Chirchiq daryosi Sirdaryoning eng katta va eng sersuv irmog'idir.**

**O'zbekistondagi eng baland suv ombori Chorvoqdir. To'g'on balandligi 160 metr.**

**Sangzor daryosi O'zbekistondagi 11 ta daryo ichida eng kichigi bo'lib, uzunligi 110 kilometrdir. Tuzkon ko'liga quyiladi.**

**Shohimardonsoy respublikamizdagi eng yirik soy hisoblanadi. U Oloy va Turkiston tizmalarining yonbag'irlaridan boshlangan Oqsuv va Ko'ksuv soylarining qo'shilishidan paydo bo'ladi. Soyga 32 ta mayda soy, jilg'alar quyiladi.**

**Eng baland dovon Qurama tizma tog'idagi Qamchiq dovonidir. Uning balandligi 2268 metrga teng.**

Anvar MIRZAZODA to'pladi

## BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

### «JAHON CHEMPIONATI» TOPQIRLIK MASHQLARI

**AYLANMA KROSSVORD: Belgilangan xonadan raqam atrofiga soat mili yo'nalishida:** 1. Argentina futbol yulduzi, «Barselona» jamoasi hujumchisi. 2. Fransiya terma jamoasida o'ynagan to'purar. 3. Birinchi jahon chempionatida ilk gol muallifi bo'lgan to'purar. 4. Fransiyaning mohir futbolchisi, «Oltin to'p» sovrindori, murabbiyi. 5. «Bo'ysunmas sherlar» laqabini olgan Kamerun terma jamoasida o'ynagan to'purar. 6. To'pning tepilishi. 7. Futbol o'yinini boshqaruvchi. 8. Ekvador futbol terma jamoasida o'ynagan hujumchi. 9. Germaniya terma jamoasi futbolchisi. 10. Futbol sovrini. 11. XXI mundialda ishtirok etayotgan osiyolik terma jamoa.

**CHAYNVORD:** 1. Joriy yildagi futbol bo'yicha jahon chempionati bo'lib o'tadigan davlat. 2. «Kengurular» laqabini olgan terma jamoa. 3. Futbol vatani. 4. O'z davrida FIFA tashkilotini boshqargan futbol homiysi. 5. Qoida buzilganda tepiladigan to'p. 6. Jahon chempionati bir marta bo'lib o'tgan qit'a. 7. Jahonning ikki bor chempionligiga erishgan terma jamoa. 8. Maydondan tashqariga chiqarilgan to'p. 9. Futbol anjomi. 10. O'tgan asr futbol qiroli, to'purar. 11. Jahon chempionati o'yinlarini boshqarib kelayotgan o'zbek futbol hakami. 12. Joriy yildagi jahon chempionati o'yinlari bo'lib o'tadigan shaharlardan biri. 13. Fransiya terma jamoasi murabbiyi. 14. Tarkibida mohir to'purar Muhammad Saloh bo'lgan terma jamoa. 15. Portugaliyalik futbol yulduzi, «Real» hujumchisi. 16. Yutuq hisobi. 17. Futboldagi o'yindan tashqari holat. 18. Teng natija bilan tugallangan o'yin. 19. O'yindagi quvonchli holat. 20. XXI mundial o'yinlarining ochilish marosimi bo'lib o'tadigan Moskvadagi stadion. 21. Shvetsiya terma jamoasi to'purari. 22. Penalti jarimasidan mohir to'purar, chililik darvozabon, murabbiy. 23. Futbol o'yini qismi.

**TOPSHIRIQ: Shakl atrofidagi xonalarda o'z davrining tanikli, mohir futbolchilari familiyalarining birinchi va so'nggi harflari berilgan. Shu asosda ularni topib yozish bilan topshiriqni hal eting.**

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

11-iyun 2018

|  |   |   |  |  |  |
|--|---|---|--|--|--|
| <p><b>Muassis:</b><br/>O'zbekiston Respublikasi<br/>Xalq ta'limi vazirligi</p> | <p><b>Bosh muharrir</b><br/>Feruza ADILOVA</p> <p>Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida<br/>0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.</p> | <p><b>TAHRIR HAY'ATI:</b><br/>Qahramon QURONBOYEV,<br/>Dilshod KENJAYEV,<br/>Alisher SADULLAYEV,<br/>Laziz TANGRIYEV,<br/>Murtazo SULTONOV,<br/>Feruza JALILOVA,<br/>Ashurali JO'RAYEV<br/>(Bosh muharrir o'rinbosari),<br/>Feruz MATYOQUBOV<br/>(mas'ul kotib)</p> | <p><b>Navbatchi muharrir</b><br/>Nodira NAZAROVA</p> <p><b>Rassom</b><br/>Feruzbek KAMOL o'g'li</p> <p><b>Sahifalovchi-dizayner</b><br/>Shaxobiddin<br/>MAXMADIYEV</p> | <p>«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.<br/>Manzilimiz va bosmaxona manzili:<br/>Toshkent shahri,<br/>Navoiy ko'chasi, 30-uy.<br/>Indeks: 100011.<br/>Obuna indeksi: 198.<br/>e-mail: <a href="mailto:info@tongyulduzi.uz">info@tongyulduzi.uz</a><br/><a href="http://www.tongyulduzi.uz">www.tongyulduzi.uz</a><br/>Adadi – 61356<br/>Buyurtma – V 1787</p> | <p>Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.<br/>Shakli A-3, 2 bosma taqoq.<br/>Bahosi kelishilgan narxda.<br/>Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.<br/>Topshirish vaqti – 18:00<br/>Topshirildi – 18:00<br/>Tel./faks: (99871) 244-63-08</p> |
|  | <p>8</p>  | <p>8</p>  | <p>8</p>   | <p>8</p>   | <p>8</p>   |